


XIII. NOMINAL HISOBLANGAN O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi

Farg'ona viloyatida 2025- yil yanvar-sentabr oylarida o'rtacha oylik ish haqi 4 574,5 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,8 % ga o'sgan.



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)



II. Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025- yilning yanvar-sentabr oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024- yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	4 574,5	119,8
Farg'ona shahri	5 951,5	114,6
Qo'qon shahri	4 896,8	111,6
Quvasoy shahri	4 322,5	108,8
Marg'ilon shahri	3 967,9	125,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq	3 490,5	124,3
Qo'shtepa	4 056,3	123,4
Bag'dod	3 495,0	115,4
Buvayda	4 088,5	134,9
Beshariq	3 873,2	137,6
Quva	3 587,5	129,7
Uchko'prik	3 880,6	109,8
Rishton	4 041,2	129,9
So'x	3 462,0	110,8
Toshloq	5 145,6	124,7
O'zbekiston	3 750,1	120,1
Farg'ona t.	3 578,4	128,6
Dang'ara	3 739,8	122,3
Furqat	3 934,3	130,3
Yozyovon	3 793,1	122,1

Shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari Beshariq tumanida 3 873,2 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (137,6 %) ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Buvayda tumanida 4 088,5 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (134,9 %), Furqat tumanida 3 934,3 ming so'mni (130,3 %) tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Rishton tumanida 4 041,2 ming so'm (129,9 %), Quva tumanida 3 587,5 ming so'mni (129,7 %), Farg'ona tumanida 3 578,4 ming so'mni (128,6 %), Marg'ilon shahrida 3 967,9 ming so'mni (125,4 %), Toshloq tumanida 5 145,6 ming so'mni (124,7 %), Oltiariq tumanida 3 490,5 ming so'mni (124,3 %), Qo'shtepa tumanida 4 056,3 ming so'mni (123,4 %), Dang'ara tumanida 3 739,8 ming so'mni (122,3 %), Yozyovon tumanida 3 793,1 ming so'mni (122,1 %), O'zbekiston tumanida 3 750,1 ming so'mni (120,1 %), Bag'dod tumanida 3 495,0 ming so'mni (115,4 %), Farg'ona shahrida 5 951,5 ming so'mni (114,6 %), Qo'qon shahrida



4 896,8 ming soʻmni (111,6 %), Soʻx tumanida 3 462,0 ming soʻmni (110,8 %), Uchkoʻprik tumanida 3 880,6 ming soʻmni (109,8 %), Quvasoy shahrida 4 322,5 ming soʻmni (108,8 %) tashkil etib, boshqa shahar va tumanlarga nisbatan oʻsish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir koʻrsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha oʻrtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida maʼlumotlar 2025- yilning yanvar–sentabr oylariga oid boʻlib, 2024- yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va oʻzgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming soʻm	Oʻsish sur'ati, %da
Sanoat	5 134,6	116,0
Qurilish	3 035,9	83,8
Savdo	4 144,9	92,7
Tashish va saqlash	6 776,5	112,6
Yashash va ovqatlanish	3 824,0	98,3
Axborot va aloqa	9 028,7	119,1
Bank, sugʻurta, lizing, kredit va vositachilik sohasida	10 666,4	110,1
Taʼlim	3 931,1	126,5
Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish	3 794,6	116,3
Sanʼat, koʻngil ochish va dam olish	4 610,7	107,2
Oʻrtacha	4 574,5	119,8

Oʻrtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha tahlil qilinganida eng yuqori oʻsish sur'atlari taʼlim sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2024- yilning mos davriga nisbatan oʻsish sur'ati 26,5 % ni, ish haqi miqdori esa 3 931,1 ming soʻmga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, axborot va aloqa sohasida, koʻngil ochish va dam olish yoʻnalishida ham sezilarli oʻsish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 9 028,7 ming soʻmni tashkil etib, oʻsish 19,1 % ga, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish faoliyati sohasida ish haqi miqdori 3 794,6 ming soʻmni tashkil etib, 16,3 % ga, sanoat ish haqi miqdori 5 134,6 ming soʻmni tashkil etib, 16,0 % ga, tashish va saqlash sanoat ish haqi miqdori 6 776,5 ming soʻmni, 12,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, oʻrtacha oylik nominal ish haqi bank, sugʻurta faoliyati sohasi boʻyicha esa 10 666,4 ming soʻmni oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 10,1 % ga, sanʼat, koʻngil ochish va dam olish sohasida 4 610,7 ming soʻmni tashkil etib, 7,2 % ga, oʻsgan boʻlsada boshqa tarmoqlarga nisbatan oʻsish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir koʻrsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2025- yilning 3-choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 10 666,4 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 4 556,5 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 6 155,8 ming so'mga, tashish va saqlash sohasida 3 889,5 ming so'mga, sanoat sohasida 2 379,4 ming so'mga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 2 550,1 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi, savdo sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 2 405,0 ming so'mga, ta'lim sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 1 875,1 ming so'mga, yashash va ovqatlanish bo'yicha ish haqi miqdori 2 451,0 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi 5 134,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 7 566,9 ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida 4 741,4 ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida 4 275,6 ming so'm ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 144,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'i 4 377,6 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo 3 685,3 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasi 4 208,7 ming so'mni tashkil etgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi 6 776,5 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo'jaligi va yordamchi transport 6 896,7 ming so'mni, quruqlikdagi va quvur transporti 7 195,4 ming so'mni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida 3 073,8 ming so'mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi 9 028,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar sohasida 9 205,1 ming so'mni, aloqa sohasi 9 542,8 ming so'mni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi 10 666,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasi 16 073,7 ming so'mni, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat 2 772,8 ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 10 532,7 ming so'mni tashkil etgan.

Bank, sug'urta sohasida o'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 3 931,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 9 168,9 ming so'mni, texnik va professional ta'lim 4 272,2 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim 4 264,5 ming so'm, maktabgacha ta'lim sohasi 2 334,5 ming so'mni tashkil etgan.



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)



V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

Farg'ona viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxonalar va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Viloyatning barcha korxonalar va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

W_n – nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

Mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Manzil: 150100, Farg'ona shahar,
Oq yo'l ko'chasi, 104 a-uy
Pochta: farstat@farstat.uz
Tel: 73 241-97-74 (4071)



XIV. DEMOGRAFIK HOLAT

2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-oktabr holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 4 204,3 ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,0 foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni 74,6 ming nafarni, vafot etganlar 14,1 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 60,5 ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga ko'chib kelganlar soni 12 794 kishini va viloyatimizdan ko'chib ketganlar soni 13 714 kishini, qayd etilgan nikohlar 19,4 mingtani, nikohdan ajralishlar 3,8 mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	4 204,3	<i>ming kishi</i>
Tug'ilganlar soni	74,6	<i>ming kishi</i>
Vafot etganlar soni	14,1	<i>ming kishi</i>
Ko'chib kelganlar	12 794	<i>kishi</i>
Ko'chib ketganlar	13 714	<i>kishi</i>
Nikohlar soni	19,4	<i>ming birlik</i>
Nikohdan ajralishlar soni	3,8	<i>ming birlik</i>



II. Doimiy aholi soni

Farg'ona viloyatida doimiy aholi soni 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 4 204,3 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 80,7 ming kishiga yoki 2,0 foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 2 385,6 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 56,7%), qishloq joylarda esa 1 818,7 ming kishi (43,3%) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 2 082,0 ming kishini (49,5%), erkaklar esa 2 122,3 ming kishini (50,5%) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	4 123,6	4 204,3	102,0
Farg'ona sh.	326,9	333,9	102,1
Qo'qon sh.	312,9	318,2	101,7
Quvasoy sh.	102,7	104,4	101,7
Marg'ilon sh.	256,9	260,9	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	231,9	236,2	101,9
Qo'shtepa	212,1	216,9	102,3
Bag'dod	236,9	241,9	102,1
Buvayda	251,4	257,0	102,2
Beshariq	245,9	250,1	101,7
Quva	279,4	284,2	101,7
Uchko'prik	245,7	251,0	102,2
Rishton	220,0	224,0	101,8
So'x	85,4	87,9	102,9
Toshloq	220,8	225,2	102,0
O'zbekiston	239,3	243,9	101,9
Farg'ona t.	224,8	229,3	102,0
Dang'ara	180,1	183,8	102,1
Furqat	129,0	131,7	102,1
Yozyovon	121,5	123,8	101,9

Farg'ona viloyatida 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 621,9 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 11,9 kishiga ortgan (2024-yil 1-oktabr holatiga 1 kv km 610,0 kishi).

Aholi zichligi, 1 kv km ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Farg'ona viloyatida 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni 74,6 ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,9 promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,9 ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni 14,1 ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,4 ming nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni 74,6 ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni 38,5 ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan 51,6%), qiz bolalar soni 36,1 ming kishini (48,4%) va shahar joylarida 38,8 ming kishini (52,0%), qishloq joylarida 35,8 ming kishini (48,0%) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni 14,1 ming kishini, shundan erkaklar 7,8 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 55,3%), ayollar 6,3 ming kishini (44,7%) va shahar joylarida 7,5 ming kishini (53,2%), qishloq joylarida 6,6 ming kishini (46,8%) tashkil qildi.

**Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi,
ming kishi**




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Farg'ona viloyatida 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni 19,4 ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming birlikka ko'paygan.

Nikohdan ajralishlar soni 3,8 ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,2 ming birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni 19,4 ming birlikni, shundan shahar joylarida 10,4 ming birlikni (53,6%), qishloq joylarida 9,0 ming birlikni (46,4%) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni 3,8 ming birlikni, shundan shahar joylarida 2,3 ming birlikni (60,5%), qishloq joylarida 1,5 ming birlikni (39,5%) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni 12 794 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar 12 780 kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar 14 kishini tashkil qildi.

Ko'chib ketganlar jami soni 13 714 kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar 13 652 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar 62 kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Farg'ona viloyati	12 794	12 780	14	13 714	13 652	62
Farg'ona sh.	4 151	4 147	4	2 111	2 091	20
Qo'qon sh.	2 095	2 095	-	1 594	1 583	11
Quvasoy sh.	394	393	1	481	469	12
Marg'ilon sh.	802	802	-	1 362	1 357	5
<i>tumanlar:</i>			-			
Oltiariq	145	145	-	471	471	-
Qo'shtepa	657	654	3	657	654	3
Bag'dod	152	152	-	412	412	-
Buvayda	201	201	-	361	360	1
Beshariq	205	205	-	588	586	2
Quva	333	333	-	615	612	3
Uchko'prik	239	239	-	492	492	-
Rishton	243	243	-	555	553	2
So'x	720	720	-	179	179	-
Toshloq	389	389	-	610	610	-
O'zbekiston	386	386	-	1 089	1 088	1
Farg'ona t.	744	739	5	912	911	1
Dang'ara	430	430	-	621	621	-
Furqat	361	361	-	389	389	-
Yozyovon	147	146	1	215	214	1

Viloyatga ko'chib kelganlar va viloyatdan ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkiclarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkiclarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Manzil: 150100, Farg'ona shahar,
Oq yo'l ko'chasi, 104 a-uy
Pochta: farstat@farstat.uz
Tel: 73 241-97-74 (4070)